Ichki monolog va kutilmagan yakunning badiiy-psixologik xususiyatlari (Evrilish, Garov asarlari misolida)

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti

3-kurs O’zbek tili va adabiyoti talabasi

Isomova Ruxshona Ilhom qizi

Isomovaruxshona77@gmail.com

+998886111023

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon adabiyotining ikki muhim namunasida — Franz Kafka “Evrilish” va Anton Chexov “Garov” hikoyalarida ichki monolog hamda kutilmagan yakunning badiiy-psixologik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki monologning qahramon ruhiy olamini ochishdagi o‘rni, shuningdek, kutilmagan yakunning syujet yoritiladi. Asarlar qiyosiy-tahliliy metod asosida o‘rganilib, psixologik realizm va badiiy konfliktlarning ifodalanish shakllari aniqlanadi. Natijada ichki monolog qahramonning ichki inqirozini ochsa, kutilmagan yakun esa o‘quvchi tasavvurini yangilovchi badiiy burilish sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ichki monolog, psixologizm, kutilmagan yakun, ekzistensializm, syujet burilishi, Kafka, Chexov, Jek London, badiiy konflikt, ong oqimi.

Annotation: This article analyzes the artistic and psychological functions of internal monologue and unexpected endings in two important works of world literature — “The Metamorphosis” by Franz Kafka and “The Bet” by Anton Chekhov. The study examines the role of internal monologue in revealing the psychological world of the characters, as well as the significance of unexpected endings in the development of the plot. The works are explored using a comparative-analytical method, identifying the forms of expression of psychological realism and artistic conflict. As a result, internal monologue serves to uncover the inner crisis of the character, while the unexpected ending functions as an artistic twist that reshapes the reader’s perception.

Keywords: Internal monologue, psychologism, unexpected ending, existentialism, plot twist, Franz Kafka, Anton Chekhov, Jack London, artistic conflict, stream of consciousness.

Аннотация: В данной статье анализируются художественно-психологические функции внутреннего монолога и неожиданной развязки в двух значимых произведениях мировой литературы — «Превращение» Franz Kafka и «Пари» Anton Chekhov. В исследовании рассматривается роль внутреннего монолога в раскрытии психологического мира персонажа, а также значение неожиданной развязки в развитии сюжета. Произведения изучаются на основе сравнительно-аналитического метода, что позволяет выявить формы выражения психологического реализма и художественного конфликта. В результате внутренний монолог раскрывает внутренний кризис героя, тогда как неожиданная развязка выступает как художественный поворот, обновляющий восприятие читателя.

Ключевые слова: внутренний монолог, психологизм, неожиданная развязка, экзистенциализм, сюжетный поворот, Franz Kafka, Anton Chekhov, Jack London, художественный конфликт, поток сознания.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur tadqiqotda Mixail Baxtinning polifoniya nazariyasi, Zigmund Freydning psixoanalitik qarashlari hamda Vladimir Nabokovning Kafka ijodiga doir estetik yondashuvlari nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Baxtin konsepsiyasi badiiy matndagi ko‘p ovozlilik va ichki dialoglarni anglashga xizmat qilgan bo‘lsa, Freyd ta’limoti qahramonlarning ong osti kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va ichki iztiroblarini talqin qilishda muhim o‘rin tutdi. Nabokov qarashlari esa asarlarni biryoqlama psixologik yoki ijtimoiy talqin qilishdan cheklanib, ularning badiiy-estetik mukammalligini ochib berishga yo‘naltirdi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli adiblar asarlaridagi ichki monolog va kutilmagan yakun unsurlari o‘zaro solishtirildi, psixolingvistik metod orqali esa qahramon nutqi va tafakkur jarayonlari asosida ularning ruhiy holati chuqur tahlil qilindi. Shu tariqa, tadqiqot badiiy matnni ham adabiy, ham psixologik jihatdan kompleks o‘rganishga yo‘naltirildi.

Muhokama

Asar syujeti o‘quvchini ilk jumlalardanoq kutilmagan, daxshatli voqelikka ro‘baro‘ qiladi. Oddiy kommivoyajyor (tijorat agenti) Gregor Zamza bir tongda uyg‘onib, o‘zining daxshatli va ulkan hasharotga aylanganini ko‘radi. Uning asosiy tashvishi — hasharot bo‘lib qolgani emas, balki ishga kechikayotganidir. Gregorning xonasidan chiqolmasligi oila a’zolarida (ota-onasi va singlisida) hamda ish beruvchi nazoratchisida shubha uyg‘otadi. Eshik ochilib, qahramonning yangi qiyofasi namoyon bo‘lgach, hamma daxshatga tushadi. Nazoratchi qochib ketadi, otasi esa uni xonasiga qaytarib haydaydi. Gregor asta-sekin oilasidan uzila boshlaydi. Singlisi Grete boshida unga g‘amxo‘rlik qiladi lekin vaqt o‘tishi bilan qahramon hamma uchun og‘ir yukka aylanadi. Oila Gregorning daromadidan ayrilgani uchun ishlay boshlaydi, uyning bir qismini ijaraga berishadi. Gregor ijarachilar oldiga chiqib qolganda daxshatli janjal ko‘tariladi. Aynan shu nuqtada mehribon singlisi Grete birinchi bo‘lib: "Biz undan qutulishimiz kerak, bu Gregor emas!" deb xitob qiladi. Otasi Gregorga olma otadi, u yaralanadi. Gregor oilasiga bo‘lgan muhabbati va ularga xalaqit bermaslik istagi bilan, o‘z xonasida yolg‘izlikda vafot etadi. Oila a’zolari uning o‘limini motam bilan emas, balki katta bir yengillik va quvonch bilan kutib olishadi. Kafkaning eng buyuk mahorati — daxshatli voqeani Gregorning osoyishta, ba’zan esa haddan tashqari maishiy ichki nutqi orqali berishidir. Gregor hasharotga aylanganda, uning ichki monologi o‘quvchini hayratga soladi. U o‘zining ko‘p oyoqlari va qattiq sovutiga qarab: "Nima bo‘ldi menga?" deb o‘ylaydi-da, darhol ish haqida qayg‘ura boshlaydi: "Yo tavba, men qanday og‘ir kasbni tanladim-a! Har kuni yo‘ldaman... Buning ustiga, poezdlarning almashinuvi haqida qayg‘urish, ovqatning sifatsizligi, hech qachon samimiy bo‘lmaydigan insoniy munosabatlar..." Bu monolog qahramonning o‘zligidan (ego) qanchalik uzoqlashganini ko‘rsatadi. U o‘zini shaxs sifatida emas, balki faqat funksiya — oilani boquvchi, qarzni to‘lovchi bir mexanizm sifatida his qiladi. Uning ichki "Meni" allaqachon jamiyat tomonidan "hasharot" darajasiga tushirilgan edi.

Gregor xonasida qamalib yotganida, tashqi dunyodagi tovushlarni tinglaydi. Uning ichki nutqi orqali biz uning oilasiga bo‘lgan cheksiz mehrini ko‘ramiz. Masalan, singlisining skripka chalishini eshitganida: "Uning musiqaga bo‘lgan bu qadar ishtiyoqi bo‘lsa, u qanday qilib hayvonga aylanishi mumkin? Bu musiqa uni qayerga chorlamoqda?" Bu yerda Kafka insonning tashqi ko‘rinishi qanchalik daxshatli bo‘lmasin, uning ichki dunyosi (Meni) go‘zallikka intilishini isbotlaydi. Hasharot tanasida yashayotgan nozik va san’atsevar qalb. Gregorning ichki monologlarida aybdorlik motivi yetakchilik qiladi. U oilasiga foyda keltira olmayotgani uchun o‘zini jazolaydi. Hatto o‘limi oldidan ham uning so‘nggi o‘yi oilasiga bo‘lgan shafqati edi: "U o‘z oilasi haqida muhabbat bilan o‘yladi. Uning yo‘q bo‘lib ketishi oila uchun foydali ekanligi haqidagi qarori singlisinikidan ham qat’iyroq edi."

Ichki "Men" darajasida bu — insonning o‘zligidan kechishi, yaqinlari tomonidan rad etilishi va yolg‘izlikda ruhan so‘nishidir. Kafkaning ushbu asari bizga shuni uqtiradiki, inson qachonki o‘z manfaatidan ko‘ra boshqalarning (ish, oila, jamiyat) talablarini ustun qo‘yib, o‘zining ichki "Men"ini esdan chiqarsa, u asta-sekin hasharotga aylana boshlaydi. Yakun esa shafqatsiz: foyda keltirmaydigan

"hasharot" hech kimga kerak emas. Gregor o‘limidan so‘ng oilasining yengillik bilan nafas olishi — kutilmagan, ammo mantiqiy yakundir. Oila a’zolarining xursand bo‘lib sayrga chiqishi o‘quvchiga daxshatli haqiqatni ochadi. Inson faqat foyda keltirsa va "normallik" doirasida bo‘lsagina yaqinlariga kerak.

Anton Chexovning “Garov” hikoyasi — inson irodasi, bilimning kuchi va moddiy dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi eng kuchli falsafiy asarlardan biridir. Asar syujeti o‘quvchini oddiy bir bahsdan boshlab, insoniyatning eng og‘riqli savollariga olib boradi.

Kuz kunlarining birida keksa bankir 15 yil oldin o‘z uyida bergan ziyofatni eslaydi. O‘shanda ziyolilar o‘rtasida "O‘lim jazosi afzalmi yoki umrbod qamoq?" degan mavzuda bahs ketgan edi. Bankir o‘lim jazosi tezroq va shafqatliroq deb hisoblaydi. Mehmonlar orasida bo‘lgan yosh advokat esa: "Yashash har qanday o‘limdan afzal," deb e’tiroz bildiradi. Natijada bankir va advokat garov boylashadi. Advokat 15 yil davomida bankirning hovlisidagi kichik uyda, mutloq yolg‘izlikda o‘tirishi kerak. Agar u muddatni oxirigacha yetkazsa, bankir unga 2 million berishi lozim. Advokatga odamlar bilan gaplashish, xat olish va ko‘chaga chiqish taqiqlanadi. Faqat kitob o‘qishi, musiqa tinglashi va sharob ichishi mumkin edi.Asar advokatning 15 yil ichida qanday o‘zgarganini tasvirlaydi. Ilk yillar u qattiq yolg‘izlikni his qiladi, yengil kitoblar o‘qiydi. U tillarni o‘rganadi, falsafa va tarixga beriladi. Keyinchalik 600 dan ortiq jildli kitoblarni o‘qib chiqadi. Oxirgi yillar u Injilni va din tarixini chuqur o‘rganadi. Uning ichki dunyosi butunlay o‘zgaradi. 15 yil o‘tib, bankir inqirozga uchragan va qarzga botgan bo‘ladi. Agar u ertaga 2 millionni bersa, butunlay xonavayron bo‘ladi. Bankir daxshatli qarorga keladi. Advokatni muddat tugashidan bir necha soat oldin bo‘g‘ib o‘ldirmoqchi bo‘ladi. U sekingina advokatning xonasiga kiradi va u yerda o‘ta ozib ketgan, tanib bo‘lmas darajadagi odamni ko‘radi.

Chexovning mahoratini ko‘rsatuvchi eng kutilmagan qism bankir advokatning oldida bir maktubni ko‘radi va uni o‘qiydi. Advokat maktubda dunyo ne’matlaridan, kitobxonlar "jannat" deb biladigan narsalardan nafratlanishini yozgan edi. U kitoblar orqali hamma narsani — sevgi, boylik va hokimiyatning naqadar soxtaligini tushunib yetganini aytadi. "Sizlar aqlingizdan ozgansiz va noto‘g‘ri yo‘ldan ketyapsiz. Sizlar yolg‘onni haqiqat deb qabul qilasiz... O‘z erkinligimni va pullaringizni mensimasligimni isbotlash uchun men bu yerdan belgilangan muddatdan besh soat oldin chiqib ketaman va garovni buzaman."

“Garov” Chexovning hikoyasi inson ongining 15 yil davomida qanday o‘zgarishini ko‘rsatuvchi psixologik eksperimentdir. Advokatning qamoqdagi yillari uning kitoblar orqali butun dunyoni tushunishiga sabab bo‘ladi. Uning yakuniy maktubidagi ichki iqrori o‘quvchini larzaga solidi. O‘quvchi advokatning 2 millionni olib, zafar quchishini kutadi. Biroq u pullardan voz kechib, muddat tugashiga 5 soat qolganda qochib ketadi. Bu — moddiyat ustidan ma’naviyatning mutlaq g‘alabasidir. Chexov yakun orqali o‘quvchini o‘zining "baxt" haqidagi qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. O‘quvchi 15 yil davomida mahbuslikda qiynalgan inson pullarni olishini va qamoqdan ozod bo‘lishini intizorlik bilan kutadi. Pullardan voz kechish — inson tabiatiga ziddek ko‘rinadi. Advokat jismonan mahbus bo‘lsa-da, ruhan butun dunyo boyliklaridan baland ko‘tariladi. Pullardan voz kechish — bu bankir ustidan emas, balki moddiy nafs ustidan qozonilgan g‘alabadir. Bankir pullarni saqlab qoladi, lekin u ruhan mag‘lub bo‘ladi. U o‘zining naqadar past va pastkash ekanini (odam o‘ldirmoqchi bo‘lganini) tushunadi.

Ushbu ikki asar o‘rtasidagi bog‘liqlik insonning turli ekstremal holatlardagi aks-sadosini ko‘rsatadi: "Evrilish"- jamiyatdan begonalashuv, mehrning soxtaligi va befarqlik. "Garov"- ma’naviy yuksalish, moddiy dunyoning arzimasligi.

Shaxsiy fikrim shuki, Chexov kutilmagan yakun orqali bizga shuni uqtiradiki, inson qachonki

haqiqiy bilim va ma’naviyatga erishsa, dunyoning barcha oltinlari uning ko‘ziga oddiy tuproqdek ko‘rinib qoladi. Bu yakun asarni shunchaki hikoyadan, insoniyatga berilgan ulkan falsafiy darsga aylantiradi. Franz Kafka tomonidan yozilgan “Evrilish” asari bosh qahramoni Gregor Zamzaning hasharotga aylanishi — bu shunchaki jismoniy metamorfoza emas, balki uning jamiyat va oiladagi o‘rni, ruhiy holati hamda ichki inqirozining badiiy in’ikosidir.

Natijalar

Franz Kafka va Anton Chexov asarlarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida ichki monolog va kutilmagan yakun usullarining badiiy-psixologik funksiyalari bo‘yicha quyidagi ilmiy natijalar olindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ichki monolog asar janri va yozuvchi yo‘nalishiga qarab turlicha vazifa bajaradi. Kafka ijodida ichki monolog qahramonning ijtimoiy rollari va uning haqiqiy qo‘rquvlari o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi. Natijada, Gregor Zamzaning hasharotga aylanishi shunchaki fantastik hodisa emas, balki "ijtimoiy begonalashuvning psixologik yakuni" ekanligi isbotlandi. Chexovning "Garov" asarida ichki monolog 15 yillik vaqtni bir necha sahifaga sig‘dirish imkonini beradi. Natija ichki nutq qahramonning moddiyatdan voz kechish jarayonini mantiqiy asoslab beruvchi asosiy vosita ekani aniqlandi.

Xulosa

Franz Kafka va Anton Chexov asarlari misolida ichki monolog va kutilmagan yakunning badiiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi. Ichki monolog shunchaki personajning o‘y-fikrlari emas, balki uning ijtimoiy va biologik niqoblarini yechib tashlaydigan "psixologik rentgen"dir. Kafkada bu usul insonning jamiyatdan begonalashuvini, Chexovda ma’naviy transformatsiyani ko‘rsatib beradi. Ichki monolog o‘quvchi va qahramon o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatib, asarning emotsional ta’sir kuchini oshiradi. Kutilmagan yakun asar davomida yig‘ilgan psixologik kuchlanishni bir zumda yechib yuboradi yoki uni butunlay yangi ma’no qatlami bilan to‘ldiradi. Mazkur ikkita asarda ham yakuniy nuqta o‘quvchining dastlabki kutishlarini parchalaydi. Bu usul yozuvchiga asar markaziga qo‘yilgan falsafiy savolni yanada keskinroq ifodalash imkonini beradi.

Maqolada isbotlandiki, ichki monolog va kutilmagan yakun o‘zaro uzviy bog‘liq. Ichki monolog o‘quvchini kutilmagan yakun sari tayyorlab boradi. Agar Gregor Zamzaning hasharotga aylangandan keyingi sovuq va ishga doir o‘ylari bo‘lmaganda, uning o‘limiga oilasining befarq munosabati o‘quvchida bunchalik kuchli shok uyg‘otmas edi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda inson ruhiyatini tadqiq qilish hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kafka va Chexov tajribasi shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarning kuchi uning voqealarida emas, balki o‘sha voqealarning inson qalbida qanday aks-sado berishida va bu aks-sadoning yakuniy natijasida namoyon bo‘ladi. Ichki monolog — insonning "ichki ovozi" bo‘lsa, kutilmagan yakun — o‘quvchi tafakkurini yangilovchi "tashqi zarba"dir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Baxtin, M. (1963). Проблемы поэтики Достоевского (Dostoevskiy poetikasi muammolari). Moskva.

2.Kafka, F. (2018). Evrilish. Toshkent: Yangi asr avlodi.

3.Quronov, D. (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.

Freud, S. (1920). По ту сторону принципа удовольствия (Huzurlanish tamoyilining narigi tomonida).

4. Chexov, A. (2020). Tanlangan asarlar. Toshkent: Adabiyot.